

**XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI
RIVOJLANTIRISH HAMDA ISHBILARMONLIK MUHITINI YARATISH**

Norboyev Sarvar Azdarovich

Urgancha davlat universiteti Turizm va mehmonxona xo'jaligini

boshqarish kafedrasi katta o'qituvchisi

@-mail: serry30011988@gamil.com

Annotatsiya: *O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikga keng imkoniyatlar yaratilganligi va O'zbekistondagi imkoniyatlarni Xorazm viloyati misolida ushbu maqolada ko'rib chiqishingiz mumkin.*

Kalit so'zlar: *Hazorasp, tadbirkorlik, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik.*

O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash siyosati, amaliyoti, muammolari va istiqbollari to'g'risida tasavvur hosil qilish; tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirishdir.

Tadbirkorlik jamiyatda ijtimoiy va iqtisodiy sohalaridagi mavjud muammolarni hal qilishda va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida katta rol o'ynaydi. U ishlab chiqarish, ish bajarish, xizmat ko'rsatish sohalarida yangi ish o'rinlari yaratib, aholini ish bilan ta'minlash va ishsizlikni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlarda ham, O'zbekistonda ham har yili yaratilayotgan yangi ish o'rinlarining yarmidan ortig'i kichik va xususiy tadbirkorlikka to'g'ri keladi. Demak, tadbirkorlik aholining ish bilan bandligi, mehnat va iqtisodiy faolligining o'sishi va buning natijasida uning daromadlarining oshishiga katta hissa qo'shadi. Bu jarayonning ikki oqibatini e'tiborga olish lozim: bir tomondan, aholining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining o'sishi, kengayishi bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularni to'laroq qondirish imkoniyatlarining yaratilishidir. Bu pirovard natijada aholi hayotini yaxshilash, turmush darajasini ko'tarish, farovonligini oshirishni ta'minlaydi.

Rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqariladigan yalpi ichki mahsulotning qariyb yarmi, ayrim mamlakatlarda esa undan ham ko'prog'i kichik biznesga to'g'ri keladi. O'zbekistonda yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotda kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarining hissasi hozirgi kunda 52 foizdan oshdi va u yildan-yilga o'sib bormoqda. Tadbirkorlik iqtisodiyotning barcha sohaları va tarmoqlarida tashkil etilgan, amalga oshirilmoqda va rivojlanib bormoqda. Lekin uning holati va rivojlanishi barcha tarmoqlarda bir xil emas. O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlari (yuridik shaxslar) ning 60 foizi qishloq xo'jaligi, 18 foizi savdo va umumiy ovqatlanish, 12 foizi sanoat va qurilish sohalarida tashkil etilgan, xizmat ko'rsatish sohasida ham rivojlanib bormoqda. Yuridik shaxs bo'lmagan yakka tadbirkorlarning asosiy qismi savdo, umumiy ovqatlanish va ayrim xizmatlar ko'rsatish sohasida faoliyat olib bormoqdalar.

Tadbirkorlik shu paytgacha ishlatilmay kelgan aholi jang'armalari, mahalliy resurslar, ishlab chiqarish va maishiy chiqindilar, xorijiy investitsiyalarni ijtimoiy-iqtisodiy jarayonga faol jalb etib, ishlab chiqarishni kengaytirish, milliy mahsulot va boylukni ko'paytirishga olib keladi. Bugun mamlakatimizda bo'layotgan shunday o'zgarishlar miqyosida Xorazm viloyatida ko'rib chiqaniz. Bugun viloyat boshqa viloyatlarga qaraganda tadbirkorlik sohasida ham boshqa sohalarida ortda qolmagan holda rivojlanib bormoqda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “XORAZM VILOYATIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH VA UNING INVESTITSYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO`G`RISIDA” gi qaroriga muvofiq bugun viloyatimizda keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

2020-yilning yanvar - iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 69,1 % ni tashkil etdi. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 11,8 birlikni tashkil qildi. 2020-yilning yanvar - iyunida 2,8 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 90,8 % ni tashkil qildi. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 768 ta, sanoatda 596 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 830 ta, qurilishda 178 ta, yashash va ovqatlanishda 130 ta, tashish va saqlashda 53 ta tashkil etilgan. 2020 - yilning yanvar - iyun oylarida tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Urganch shahri - 15,0 %, Qo'shko'pir tumani - 10,2 %, Gurlan tumani - 9,3 %, Urganch tumani - 9,2 %, Yangibozor tumani - 8,5 %, Xonqa tumani - 7,8 %, Bog'ot tumani - 7,7 %, Xiva shahri - 7,6 %, Xiva tumani - 6,6 % ga tegishli.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki bugungi Yangi O`zbekistonda yangicha imkoniyatlar yaratib berilgan shi jumladan Prezidentimizning qarorlariga muvofiq Hazorasp erkin industrial zonasini misol qilib keltirishimiz mumkin. Xorij davlatlaridan kiritilgan investitsiyalar oqibatida viloyatda keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. O`zbekistonning bundan keying sitiqbollari yoqin kelak kutmoqdaligini ko`rishimiz mumkin.

ASOSIY ADABIYOTLAR:

1.А.Бекмурадов, Б.Гоипназаров, М.Аманов, М.Тошхуджаев. Ўзбекистон иқтисодиётини либераллаштириш йилларида. 1-қисм. Макроиктисобиёт ва иқтисодий ислохатлар, савдо ва инвестициялар оқимлари. Т.: ТДИУ, 2005й., 59 б.

2.А.Бекмурадов, Р.Тоиров, Э.Махмудов, М.Исаков, Ж.Тураев. Ўзбекистон иқтисодиётини либераллаштириш йилларида. 5-қисм. Ташқи иқтисодий сиёсат: савдо ва инвестициялар оқимлари. Т.: ТДИУ, 2005, 61 б.

3.Ғозибеков Д.Ё.Инвестицияларни молиялаштириш масалари. Т.: “Молия”, 2003 .332б.

4.Шодибеков Д.И., Шодибекова Д.А.Молиявий менежмент Магистратура талабалари учун ўқув қўлланма./ Тошкент.:ТДИУ, 2006й. 267 б.

5.<http://www.spc.gov.uz/ru/esupport/mdex3.html>

6.<http://www.spc.gov.uz/ru/spmanagement/gppredp.html>